

**BOJXONA QIYMATINI ANIQLASH BO'YICHA DASTLABKI
QARORLAR INSTITUTINI JAHON SAVDO TASHKILOTI TALABLARI
ASOSIDA HUQUQIY TARTIBGA SOLISH**

Eshboyev Elyorbek Shuhrat o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti tyutori

elyorjoneshboyev@gmail.com

Tel: +998 88 185 25 10

Tashqi savdo hajmining o'sishi va O'zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga (JST) a'zo bo'lish jarayoni sharoitida tovarlarning bojxona qiymatini adolatli, shaffof va oldindan bashoratlanadigan tarzda aniqlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bojxona qiymati boj va soliqlarning asosini tashkil etgani bois uni belgilashdagi noaniqlik, bir tomondan, davlat fiskal manfaatlariga, ikkinchi tomondan, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining huquqiy aniqligiga tahdid soladi. Ushbu muammoni hal etishning samarali huquqiy vositasi — dastlabki qarorlar (advance rulings) instituti bo'lib, u tovar bojxona hududiga kelmasdan oldin uning tasnifi va bojxona qiymatini aniqlash bo'yicha bojxona organi tomonidan beriladigan, huquqiy kuchga ega yozma qaror shaklida namoyon bo'ladi.

Institutning xalqaro-huquqiy asosini, birinchi navbatda, GATT 1994ning VII moddasini amalga oshirish to'g'risidagi Bitim (Bojxona qiymatini aniqlash to'g'risidagi Bitim) tashkil etadi; unga muvofiq qiymatni aniqlashda shaffoflik, iqtisodiy asoslanganlik va nizolarni bartaraf etish tamoyillari yetakchi o'rin tutadi. JSTning Savdoni osonlashtirish to'g'risidagi bitimi (TFA) 3-moddasi a'zo davlatlardan tovar tasnifi va kelib chiqishi bo'yicha dastlabki qarorlar chiqarishni talab etadi hamda ularni bojxona qiymatini aniqlashga nisbatan qo'llashni rag'batlantiradi. Jahon bojxona tashkilotining (JBT) 2005-yilda qabul qilingan "Recommendation on the Use of Binding Valuation Information for Customs Purposes" tavsiyasi va 2022-yilgi amalga oshirish bo'yicha ko'rsatmalari qarorlarning yozma shaklda, belgilangan muddatda va aniq protseduralar asosida

berilishini nazarda tutadi.

Institutning mohiyati shundaki, u tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchisiga bojxona to'lovlari miqdorini oldindan bilish, moliyaviy rejalashtirishni amalga oshirish va huquqiy jihatdan himoyalangan holda faoliyat yuritish imkonini beradi. Yaponiya tajribasi (2001-yildan amal qilayotgan Pre-Entry Classification and Valuation Ruling System) ushbu tizim joriy etilgach bojxona rasmiylashtiruvining aniqligi va shaffofligi oshgani, rasmiylashtirishdagi kechikishlar hamda bahsli holatlar soni sezilarli kamayganini ko'rsatadi. Shu tariqa institut savdoni osonlashtirish bilan fiskal nazorat o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi.

Rivojlangan davlatlar amaliyoti institutning liberal modelini namoyon etadi. Yaponiyada qaror bepul beriladi va 3 yil amal qiladi; Janubiy Koreyada (Advance Customs Valuation Arrangement) bepul bo'lib, amal muddati 11 yilni tashkil etadi; Buyuk Britaniyada (Advance Valuation Ruling) bepul va 3 yil; Yevropa Ittifoqida (Binding Tariff Information/AVR tizimlari) bepul va 3 yil. Umumiy jihat — xizmatning bepulligi va qarorning uzoq amal muddati bo'lib, bu importyorlarga o'rta va uzoq muddatli moliyaviy prognozlash hamda barqaror tijorat muhitini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasida dastlabki qarorlar instituti Bojxona qo'mitasining Adliya vazirligida 2021-yil 27-dekabrda 3343-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan 01-02/8-51-son qarori asosida 2022-yil 1-yanvardan kuchga kirgan. Unga ko'ra, tovarlarga to'lanishi lozim bo'lgan bojxona to'lovlari miqdorini aniqlash bo'yicha dastlabki qaror qabul qilingan kundan boshlab 90 kalendar kun davomida amal qiladi. Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 31-yanvardagi 55-son qaroriga muvofiq esa bunday qaror uchun bazaviy hisoblash miqdorining (BHM) 75 % miqdorida bojxona yig'imi undiriladi. Amaliyot ko'rsatkichlari institutga talab yuqoriligini tasdiqlaydi: 2025-yil 1-yanvarga qadar manfaatdor shaxslar 1863 ta holatda murojaat qilgan bo'lib, shundan 623 tasida ariza ko'rib chiqilishi rad etilgan.

Milliy model xalqaro amaliyotdan bir qator jihatlari bilan farqlanadi va bu farqlar huquqiy nomuvofiqlik hamda institut samaradorligining pasayishi xavfini keltirib chiqaradi. Birinchidan, qarorning 90 kunlik amal muddati rivojlangan

davlatlardagi 3–11 yilga nisbatan sezilarli qisqa bo‘lib, institutning bosh maqsadi — uzoq muddatli bashoratlilikni cheklaydi. Ikkinchidan, xizmatning pulligi (BHM 75 %) yetakchi davlatlardagi bepul model bilan uyg‘un emas va tadbirkorlik subyektlarining murojaatini cheklashi mumkin. Uchinchidan, rad etish ulushining yuqoriligi (murojaatlarning taxminan uchdan biri) rad etish asoslari va protsedura shaffofligini normativ jihatdan aniqlashtirishni taqozo etadi.

Xulosa qilib aytganda, bojxona qiymatini aniqlash bo‘yicha dastlabki qarorlar institutini GATT VII moddasi va TFAning 3-moddasi talablariga to‘liq muvofiqlashtirish maqsadga muvofiq. Buning uchun qarorning amal qilish muddatini xalqaro amaliyotga yaqinlashtirish (kamida bir necha yilgacha uzaytirish), yig‘im siyosatini qayta ko‘rib chiqish, rad etish asoslarini normativ tarzda aniq belgilash va murojaat protsedurasini to‘liq elektronlashtirish tavsiya etiladi. Ushbu chora-tadbirlar tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari uchun huquqiy aniqlikni oshiradi, bojxona to‘lovlari bo‘yicha nizolarni kamaytiradi va O‘zbekistonning JSTga a‘zolik majburiyatlariga muvofiqligini ta’minlaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Agreement on Implementation of Article VII of the General Agreement on Tariffs and Trade 1994 (Customs Valuation Agreement). Geneva: WTO, 1994.
2. World Customs Organization. Recommendation on the Use of Binding Valuation Information for Customs Purposes. Brussels: WCO Council, 2005.
3. WCO Permanent Technical Committee. Guidelines for Implementation of Advance Valuation Rulings. Brussels: WCO, 2022.
4. Bojxona qo‘mitasining “O‘zbekiston Respublikasiga olib kiriladigan tovarlarga to‘lanishi lozim bo‘lgan bojxona to‘lovlari miqdorini aniqlash bo‘yicha dastlabki qarorni qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 01-02/8-51-son qarori (Adliya vazirligida 27.12.2021, 3343-son).
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.01.2025-yildagi “Bojxona yig‘imlari stavkalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 55-son qarori.